

INGLIZ TILINI O'QITISHDA GURUH BO'LIB ISHLASHNING SAMARADORLIGI

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti
Ingliz tili filologiya fakulteti 2-kurs talabasi
Muhammadjonova Madina Anvarjon qizi
madinamuhammadjonova2006@gmail.com
Hammuallif: Sabirova Feruza Islomjon qizi
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti
Mustaqil ta'lim ko'nikmalari fani o'qituvchisi
f.sobirova@uzswlu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda guruh bo'lib ishlashning samaradorligi, uning o'quvchilarning faolligi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Guruhli yondashuv o'quvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantirib, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro o'rganish va fikr almashish jarayonlarini faollashtiradi. Maqolada “Fikriy hujum”, “Yalpi fikriy hujum” va “6x6x6” kabi interaktiv metodlarning darsdagi qo'llanilishi tahlil qilinib, ularning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari guruhda ishlashning o'quvchilarda motivatsiyani oshirishi, murakkab vazifalarni birgalikda hal qilishga undashi hamda dars jarayonining sifatini yaxshilashini tasdiqlaydi. Shuningdek, guruhlarini to'g'ri tashkil etish samaradorlikka bevosita ta'sir qilishi ta'kidlanadi. Umuman olganda, ingliz tili ta'limida guruhli ishlash strategiyasi o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish va ta'lim samaradorligini kuchaytiruvchi muhim pedagogik yondashuv hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ yondashuv, faol metodlar, o'quvchi faolligi, muloqot ko'nikmalari, rolli o'yinlar, munozara va fikr almashish, o'quvchilarning motivatsiyasi, o'zaro o'rganish, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi, jamoaviy faoliyat, tilni amaliy o'zlashtirish.

Kirish: Bugungi kunda chet tillarini bilish nafaqat bilim, balki zaruratga aylanib bormoqda. Shuningdek, ingliz tilini o'rganish o'quvchilarning kelajakdagi ta'limi, kasbiy rivoji va global muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi, shu sababli o'qituvchilar samarali metodlarni izlab, o'quvchilarni darsga faol jalb qilish ularni mustaqil fikrlashga undash va muloqot muhitini yaratishda guruh bo'lib ishlash metodini muhim deb bilishmoqda va bu metodning o'rni tobora ortib bormoqda. Guruh bo'lib ishlashning eng muhim jihati shundaki, o'quvchilar nafaqat o'qituvchidan, balki bir-biridan ham o'rganadi. Dars sifatini oshirishda tanlangan metod va tamoyillar muhim o'rin tutadi.

Makarenko jamoani sport zaliga o‘xshatganidek, har bir o‘quvchi o‘z qobiliyati va qiziqishiga qarab faoliyat ko‘rsatadi.

O‘quvchilar bajarilgan topshiriqlarni erkin ifodalab, tengqurlari bilan fikr almashadi. Bu esa shaxsiy hurmat va erkinlikni rivojlantiradi. Jamoaning samarali ishlashi to‘rt bosqichda amalga oshadi:

1. O‘qituvchi maqsad va vazifalarni belgilab, jamoa faolini aniqlaydi.
2. O‘zini boshqarish qobiliyati shakllanadi va faollik rag‘batlantiriladi.
3. Har bir a‘zodan faoliyatni bajarish talab qilinadi.
4. Jamoa a‘zolari o‘zlarining jamoa manfaatini ifoda etuvchi talablarni belgilaydi.

Natijada, ingliz tili darsida jamoa bilan ishlash orqali axborot almashinuvi kengayadi, o‘quvchilar mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda tilga qiziqishlari ortadi.

Bu jarayon:

- hamkorlikni kuchaytiradi,
- muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi,
- murakkab vazifalarni birgalikda bajarishga imkon beradi.

Jamoadam muammoli vaziyatlar va bahsli holatlar o‘quvchining fikrlashini rag‘batlantiradi, ular o‘z bilim va tajribasini amalda qo‘llaydi hamda masalalarga yechim topadi. Bu jarayon:

- hamkorlikni kuchaytiradi,
- muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi,
- murakkab vazifalarni birgalikda bajarishga imkon beradi.

Guruhlarda o‘quvchilar passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi.

Bu quyidagi natijalarga olib keladi:

- dars jarayoni jonlanadi,
- o‘quvchilar o‘z fikrini bildirishi o‘rganadi,
- ingliz tilida muloqot qilish tabiiylashadi.

Ofis va zamonaviy ish bozorida zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

- jamoadam ishlash,
- fikrni aniq ifodalash,
- tinglay olish,
- mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilish,

Vaqtni boshqarishguruhda bajarilgan ishlar ko‘pincha yakka tartibda bajarilganga qaraganda yuqori sifatli bo‘ladi. Chunki guruh a‘zolari:

- fikrlarni birlashtiradi,
- har kimning kuchli tomonlaridan foydalanadi,
- ijodiy yechimlar topa oladi.

Guruhda ishlashda o'quvchi boshqaruvchi emas, yo'naltiruvchi rôlida bôladi, ko'proq o'quvchi markazli bôladi. Ôqituvchi faqat guruhlarni shakllantiradi, vazifa beradi, jarayonni nazorat qiladi.

Guruh bo'lib ishlashda ôqituvchilar guruhlarni tashkil qiladi bunda to'g'ri tashkil qilish muhimdir. To'g'ri tashkil etilsa, kamchiliklar ham bartaraf etiladi. Guruhli ishlash noto'g'ri tashkil qilinsa:

- ba'zi o'quvchilar passiv bo'lib qolishi,
- adolatsizlik sezilishi,
- ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Shu bois o'qituvchi guruhlarni to'g'ri shakllantirishi va jarayonni boshqarishi juda muhim.

Keltirilgan tadqiqotda talabalar darsdan tashqari vaqtda guruhlarda ishlashga majbur qilinganda ular bu jarayonni o'z o'qishlari uchun foydali deb hisoblagani ta'kidlanadi. Talabalar murakkab mavzularni tushunishda bir-biriga yordam bera olgani, bilim almashgani hamda dars va imtihonlarga tayyorlanishda qo'shimcha motivatsiya hosil bo'lgani aytiladi. Tadqiqotda guruh bo'lib ishlash o'quvchilarni faollikka undashi, mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishi va ayniqsa mustaqil tayyorlanish jarayonini kuchaytirishi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, guruh a'zolari uchrashish uchun vaqt topa olmasligi kabi qiyinchiliklar ham bo'lgan, ammo ko'pchilik bu muammoni texnologiyalar — masalan, onlayn uchrashuvlar orqali hal qilgan. Natijada talabalar ko'pchiligi guruhda ishlash foydali ekanini aytib, kelajakda ham shunday imkoniyatlar bo'lishini xohlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kimsanova, N. (yil noma'lum). Ingliz tili darsida guruhlar bilan ishlashning o'rni.
2. Francis, N., Allen, M., & Thomas, J. (yil). Using group work for assessment: An academic's perspective.
3. Roychowdhury, H. S., Gerrits, R., Hull, K., Stowe, S., & Jensen, M. (yil). Benefits and challenges of assigned out-of-class group work in the community college setting.
4. G'ofurova, G. (yil). Ingliz tili o'rganishda o'quvchilarning guruhda, juftlikda va individual ishlashning ahamiyati.
5. Nodira, O'. A. (yil). Darslarni tahlil qilishda kichik guruh bilan ishlash.
6. Baxtiniso, S. Sh. (yil). Ingliz tilini o'rganish jarayonida tamoyillar va metodlarning o'rni.